



YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA MUALLIFLIK HUQUQI KAFOLATLARI

Matyoqubov Matyoqub Marksovich,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Xalqaro huquq” fakulteti 2-bosqich talabasi
matyoqub206@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida mualliflik huquqlarining huquqiy kafolatlari tahlil qilinida. Amaldagi tizimdagi boshliqlar aniqlanib, O'zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonun va xalqaro tajribalarga tayangan holda yechim va takliflar beriladi. Tadqiqot natijalari mualliflik huquqlarini himoya qilishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Mualliflik huquqi, intellektual mulk, Yangi O'zbekiston, huquqiy himoya, raqamli texnologiyalar, turdosh huquqlar, xalqaro tajriba.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются правовые гарантии авторского права в условиях Нового Узбекистана. Выявлены недостатки действующей системы, а также представлены пути их решения и предложения, основанные на Законе Республики Узбекистан «Об авторском праве и смежных правах» и международном опыте. Результаты исследования направлены на совершенствование защиты авторских прав.

Ключевые слова: Авторское право, интеллектуальная собственность, Новый Узбекистан, правовая защита, цифровые технологии, смежные права, международный опыт.

ABSTRACT

This article analyzes the legal guarantees of copyright in the conditions of New Uzbekistan. The shortcomings of the current system are identified, and solutions and proposals are provided based on the Law of the Republic of Uzbekistan “On Copyright and Related Rights” and international experience. The results of the study serve to improve the protection of copyright.

Keywords: Copyright, intellectual property, New Uzbekistan, legal protection, digital technologies, related rights, international experience.

KIRISH

Bugungi raqamli transformatsiya jarayonlari jadal kechayotgan davrda mualliflik huquqining samarali himoya qilinishi nafaqat madaniy-ma'naviy rivojlanish, balki iqtisodiy barqarorlik va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun ham muhim omilga aylanmoqda. Axborot almashinuvining tezlashuvi, onlayn platformalar va sun'iy





intellektning keng qo'llanilishi mualliflik huquqi institutiga yangi vazifalar yuklamoqda. Aynan shu sababli Yangi O'zbekiston sharoitida mualliflik huquqi kafolatlarini mustahkamlash, ijodkorlar manfaatlarini himoya qilish va asarlarning noqonuniy tarqatilishini oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni, Bern konvensiyasi, Prezident Qarorlari va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyalarida intellektual mulk himoyasini kuchaytirish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilangan. So'nggi yillarda elektron ro'yxatdan o'tkazish tizimlarining joriy etilishi, raqamli kontentni monitoring qilish bo'yicha institutlar faoliyatining kengayishi, ijodkorlar huquqini himoya qilishga ixtisoslashgan organlar salohiyatining oshirilishi ushbu sohani modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Xususan, mualliflik huquqining buzilishiga qarshi kurashish, plagiatning oldini olish, asarlarni avtomatlashtirilgan tartibda identifikatsiya qilish bo'yicha talablar kuchaytirilgan.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili raqamli muhitda mualliflik huquqi buzilishining ko'lemi oshib borayotganini, ayniqsa ta'lim sohasi va internet platformalarida asarlar ruxsatsiz ko'chirib joylanishi keng tarqalganini ko'rsatadi. O'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari ham bu holatni tasdiqlaydi: respondentlarning 35 foizdan ortig'i mualliflik huquqi bo'yicha yetarli bilimga ega emasligini, 58,8 foizi esa amaldagi himoya tizimini samarasiz deb hisoblashini bildirgan. Bu esa intellektual mulk madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi.

Mazkur ilmiy maqolada mualliflik huquqi kafolatlarining nazariy asoslari, amaldagi huquqiy mexanizmlar, raqamli muhitda vujudga kelayotgan yangi chaqiriqlar va xalqaro standartlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga asosanib, aholining xabardorlik darajasi, himoya tizimiga bo'lgan ishonchi va amaliy muammolar yoritiladi hamda mavjud tizimni takomillashtirish bo'yicha huquqiy va institutsional takliflar ishlab chiqiladi. Shu tariqa, kirish qismi mavzuning dolzarbligi, nazariy-huquqiy asoslari va tadqiqot maqsadini belgilab, maqolaning keyingi bo'limlari uchun ilmiy zamin yaratadi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib keldi. Internet, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn ta'lim kabi jarayonlar inson faoliyatini yengillashtirayotgani bilan birga, mualliflik huquqi sohasida yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Asar, maqola, video, surat yoki dastur yaratayotgan har bir inson endi faqat ijodkor emas, balki huquq subyekti ham hisoblanadi. Shu sababli, Yangi O'zbekiston sharoitida mualliflik huquqining to'g'ri qo'llanilishi va himoya qilinishi nafaqat ijodkorlarning manfaatini, balki jamiyatda adolat va halollik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, ushbu tadqiqot mualliflik huquqi kafolatlarining nazariy asoslarini, amaliy muammolarini hamda raqamli makondagi dolzarb xavflarni yoritishga qaratilgan

bo'lib, mazkur muammolarning ilmiy manbalarda qanday bayon etilgani, normativ huquqiy bazada qanchalik aks etgani, empirik natijalarda qanday ifodalanganini kompleks tahlil qiladi.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi ham nazariy, ham empirik, ham normativ-huquqiy yondashuvlarni uyg'unlashtirgan. Avvalo, mahalliy va xorijiy adabiyotlar kontent-tahlil usulida qayta ishlanib, mualliflik huquqining nazariy asoslari, adolatli foydalanish tamoyili, raqamli xavflar, xalqaro standartlar va ilg'or tajribalar chuqur tahlil qilindi. So'ngra normativ-huquqiy yondashuv orqali milliy qonunchilik xalqaro normalar bilan solishtirildi. Shuningdek, empirik yondashuv sifatida 17 nafar respondent o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi[11]. So'rovnomada respondentlarning yoshi, jinsi, mualliflik huquqi bo'yicha xabardorligi, qonunlarni bilish darajasi, amaldagi himoya tizimiga munosabati va buzilish holatlariga oid tajribalari o'rganildi. Ushbu jarayon statistik solishtirish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv tahlil usullari asosida qayta ishlanib, nazariy manbalar bilan qiyoslandi.

Avvalo, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mualliflik huquqi masalalari O'zbekiston ilmiy maydonida tobora ko'proq e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biridir. Lapasov A.T. tomonidan yozilgan "Virtual makondagi mualliflik huquqi obyektlaridan adolatli foydalanish: muammo va yechimlar" nomli maqolada virtual makonda mualliflik huquqini qo'llashning murakkabligi tahlil qilinib, "adolatli foydalanish" tamoyilining O'zbekistonda noaniq talqin qilinishi muammo sifatida ko'rsatiladi [1]. Muallifning fikricha, sud amaliyotida yagona yondashuv bo'lmagani sababli internetdagi foydalanish holatlarida mualliflar va foydalanuvchilar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelmoqda. Bu tadqiqotda ko'tarilgan masala nazariy jihatdan muhim bo'lib, aynan raqamli muhit talablari bilan qonunchilikning uyg'unlashuvi zarurligini ta'kidlaydi.

Abdumumin Yuldashov va Sreenivasulu N.Sh. tomonidan yozilgan "Raqamli muhitda mualliflik huquqi muhofazasi" maqolasi esa xalqaro standartlar va ularning O'zbekiston qonunchiligiga moslashuvi masalasini yoritadi. Mualliflar Bern konvensiyasi, TRIPS bitimi va WIPO internet shartnomalarining talablarini milliy qonunchilik bilan qiyoslab, raqamli kontentni himoya qilish bo'yicha mavjud bo'shliqlarni ko'rsatadi [2]. Shuningdek, ular internet platformalarida mualliflik huquqi buzilishining real misollarini keltirib, elektron litsenziyalash tizimini joriy etishni taklif qiladi. Mazkur maqola ilmiy jihatdan kuchli bo'lsa-da, statistik ma'lumotlarning keltirilmagani uni empirik jihatdan cheklangan qiladi.

Sharipova N.A. tomonidan tayyorlangan "Mualliflik huquqi: raqamli texnologiyalar asrida yangi tahdid va himoya mexanizmlari" maqolasida sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarga egalik masalasi, blokcheyn texnologiyasining imkoniyatlari kabi zamonaviy tahdidlar yoritiladi. Muallifning fikricha, sun'iy intellekt mahsulotlarining huquqiy maqomi hozircha aniq belgilanmagan bo'lib, bu global miqyosda ham dolzarb muammo hisoblanadi. Sharipova o'z tadqiqotida



statistika va real misollar yordamida mualliflik huquqi buzilishini amaliy jihatdan ko'rsatib beradi, bu esa tadqiqotning qiymatini oshiradi [3].

Sodiqova M.R. tomonidan taqdim etilgan maqolada esa O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi solishtirilgan holda, mualliflik huquqini himoya qilishning raqamli mexanizmlari tahlil qilinadi. Muallif Janubiy Koreya, Yaponiya va Germaniyadagi texnologik himoya tizimlari haqida ma'lumot berib, O'zbekiston uchun shunday mexanizmlarning moslashtirilgan shaklini taklif qiladi [4]. U intellektual mulkni himoya qilishda blokcheyn, elektron monitoring va avtomatik identifikatsiya texnologiyalarining muhimligini asoslab beradi. Empirik so'rov natijalariga tayangan holda, u O'zbekiston yoshlarida mualliflik huquqi madaniyatining yetarlicha shakllanmaganini ta'kidlaydi.

Nazariy va empirik adabiyotlarni tahlil qilish bilan birga, mualliflik huquqining kafolatlari normativ huquqiy hujjatlar orqali ham o'rganildi. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni ushbu sohaning asosiy manbasi bo'lib, unda muallifning shaxsiy va mulkiy huquqlari, asardan foydalanish tartibi va himoya mexanizmlari belgilangan [5]. Biroq qonun 2006-yilda qabul qilingan bo'lib, hozirgi raqamli makondagi yangi holatlarni to'liq qamrab olmaydi. Masalan, sun'iy intellekt yaratgan asarlar, onlayn ro'yxatdan o'tkazish, avtomatik identifikatsiya kabi mexanizmlar qonunda aniq ko'zda tutilmagan.

2021-yilda qabul qilingan Prezident qarori esa amaliy jihatdan muhim o'zgarishlar kiritgan bo'lib, elektron ro'yxatdan o'tkazish tizimini joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va intellektual mulk agentligi faoliyatini optimallashtirish kabi ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi. Biroq texnik infratuzilma yetishmasligi va xodimlarning malakasining pastligi ushbu tizimning to'liq ishlashiga to'sqinlik qilayotgani tadqiqot jarayonida aniqlangan [6].


Tadqiqot davomida, xalqaro hujjatlar - Bern konvensiyasi [7], TRIPS bitimi [8] va WIPO internet shartnomalari [9] - bilan O'zbekiston qonunchiligidagi farqlar ham qiyosiy tahlil qilindi.

Yevropa Ittifoqida 2024-yilda muhokama qilingan "AI Created Works Directive" loyihasi esa sun'iy intellekt yaratgan asarlarning huquqiy maqomini tartibga solishga urinishlar borligini ko'rsatadi [10].




O'zbekiston Respublikasida mualliflik huquqini tartibga soluvchi asosiy qonunni bilasizmi?

17 OTBETOB



Sizningcha, O'zbekistonda mualliflik huquqlarini himoya qilish tizimi qanchalik samarali?

17 OTBETOB



Empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlarning aksariyati - 64,7% - mualliflik huquqi bor-yo'qligini bilsa-da, ularning mualliflik huquqi bo'yicha bilimlari chuqur emas. 35% ishtirokchi bu sohada yetarli tushunchaga ega emasligini bildirgan. Himoya tizimining samaradorligi bo'yicha fikrlar salbiy bo'lib, respondentlarning 58,8% tizimni samarasiz deb hisoblagan. So'rovda ta'lim sohasi va internet platformalari mualliflik huquqi eng ko'p buziladigan maydon sifatida ko'rsatilgan bo'lib, bu ilmiy manbalarda qayd etilgan fikrlarni tasdiqlaydi. Respondentlarning bildirgan eng muhim sabablaridan biri - qonunni bilmaslik va onlayn nazoratning sustligi. Mazkur topilmalar aholining huquqiy savodxonligini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Respondentlarning 58,8% o'z huquqining buzilmaganini aytgan bo'lsa-da, ilmiy adabiyotlar va amaliy tajribalar bunday anglashning past darajada ekanidan dalolat beradi. Ya'ni, ko'pchilik o'z huquqi buzilganda ham buni sezmaydi.

Tadqiqot natijalari umumiy jihatdan adabiyotlarda ko'tarilgan muammolarni amaliy ma'lumotlar bilan tasdiqlaydi: qonunchilikning zamonaviy talablarga mos kelmasligi, monitoring tizimining samarador emasligi, sun'iy intellekt asosida yaratilgan asarlarning huquqiy maqomi noaniqligi, aholining huquqiy savodxonligi

pastligi, texnologik mexanizmlarning yetarlicha joriy etilmagani kabi dolzarb muammolar mavjud. O'zbekistonning raqamli rivojlanish bosqichida mualliflik huquqi tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish, ta'lim tizimida intellektual mulk madaniyatini mustahkamlash, avtomatik monitoring va blokcheyn asosidagi ro'yxatga olish tizimlarini yaratish kabi chora-tadbirlar kelgusida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois Yangi O'zbekiston sharoitida mualliflik huquqining kafolatlari faqat qonun va jinoyat javobgarligini kuchaytirish bilan emas, balki texnologik innovatsiyalar, huquqiy madaniyatni oshirish, xalqaro tajribani integratsiya qilish orqali mustahkamlanishi zarur.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha huquqiy baza mavjud bo'lsa-da, raqamli muhitda ushbu tizimning samarali ishlashi uchun qo'shimcha islohotlar zarur. Amaldagi qonunchilik - "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun, Prezident qarorlari va xalqaro shartnomalar - muallifning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi, biroq internetda ruxsatsiz tarqatish, plagiat, sun'iy intellekt yaratgan kontentning maqomi kabi masalalarda hali ham bo'shliqlar mavjud. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilganidek, raqamli texnologiyalar tez o'zgarayotgan sharoitda huquqiy mexanizmlarni ham zamonaviy talablarga moslashtirish muhimdir.

Empirik so'rovnoma natijalari esa aholining mualliflik huquqi bo'yicha xabardorlik darajasi yetarli emasligini ko'rsatdi: respondentlarning deyarli uchdan bir qismi bu borada to'liq bilimga ega emas, 82,4 foiz ishtirokchi himoya tizimini samarasiz yoki o'rtacha deb baholagan. Respondentlarning aksariyati mualliflik huquqi ta'lim sohasi va internet platformalarida eng ko'p buzilishini qayd etgan bo'lib, bu raqamli madaniyatni oshirish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi. So'rovnoma natijalarida huquqbuzarliklarning asosiy sabablari sifatida huquqiy savodsizlik, beparvolik va nazoratning sustligi ko'rsatilgan.

Xalqaro tajriba, xususan Yevropa Ittifoqi, AQSh va Janubiy Koreya amaliyoti shuni ko'rsatadiki, mualliflik huquqi tizimining barqaror ishlashi uchun monitoringni avtomatlashtirish, texnologik identifikatsiya tizimlarini joriy etish, blokcheyn asosida ro'yxatga olish, davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida ham bunday mexanizmlarni joriy etish amaliy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda mualliflik huquqini himoya qilish tizimi shakllangan bo'lsa-da, uning takomillashuvi uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarbdir:

- raqamli kontentni monitoring qilishni kuchaytirish;
- blokcheyn va avtomatik aniqlash texnologiyalarini joriy etish;
- ijodkorlar va aholining huquqiy madaniyatini oshirish;



- amaliyotga yo'naltirilgan sud-huquq mexanizmlarini kuchaytirish;
- xalqaro standartlarni milliy amaliyotga uyg'unlashtirish.

Mazkur yondashuvlar amalga oshirilgan taqdirda, mualliflik huquqi kafolatlarining samaradorligi oshadi, ijodkorlarning huquqiy himoyasi mustahkamlanadi va intellektual mulkning iqtisodiy qiymati yanada kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Lapasov A.T. Virtual makondagi mualliflik huquqi obyektlaridan adolatli foydalanish: muammo va yechimlar. — Ilmiy maqola. Olingan manzil: <https://phoenixpublication.net>
- [2] Yuldashov A., Shanmuka S.N. Raqamli muhitda mualliflik huquqi muhofazasi. — O'zbekiston–Hindiston qo'shma tadqiqoti. Olingan manzil: <http://sjifactor.com/passport.php?id=22230>
- [3] Sharipova N.A. Mualliflik huquqi: raqamli texnologiyalar asrida yangi tahdid va himoya mexanizmlari. — Ilmiy maqola. International Scientific-Online Conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15182395>
- [4] Sodiqova M.R. Intellektual mulkni himoya qilishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni. Yuridik fanlar axborotnomasi, 2024. 2(3), 45–52.
- [5] O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni, 2006-yil (keyingi tahrirlar bilan). <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
- [6] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“Intellektual mulkni himoya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida”gi Qarori, 2021-yil. <https://lex.uz/docs/-5248263>
- [7] Bern Konvensiyasi (Berne Convention for the Protection of Literary and Artistic Works). <https://lex.uz/mact/-1310607>
- [8] TRIPS Bitimi — Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights Agreement. https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/31bis_trips_01_e.htm
- [9] WIPO Internet shartnomalari (WCT va WPPT). <https://www.wipo.int/treaties/en/ip/wct/>
- [10] Yevropa Ittifoqining "AI Created Works Directive" muhokama loyihasi, 2024-yil. <https://digital-strategy.ec.europa.eu/en/policies/regulatory-framework-ai>
- [11] Ushbu tadqiqot doirasida o'tkazilgan (17 respondent ishtirokidagi) so'rovnomalar natijalari. <https://forms.gle/KbY5MVAPAuqqfu2y5>